

## O‘ZBEKISTON VA YAPONIYA MUSIQA MADANIYATIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI (SOZANDA RO‘ZIBI XODJAEV FAOLIYATI MISOLIDA)

**Xalova Gulbahor Orif qizi**

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

“Xalq cholg‘ulari ijrochilik”

Ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: **Shahnoza Ayxodjaeva**

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti,

San’atshunoslik fanlari nomzodi

### ANNOTATSIYA

*O‘zbekiston va Yaponiya davlatlarining hamdo‘stlik munosabatlari qadimiy asrlarga borib taqaladi. Buyuk ipak yo‘li orqali o‘zbek va yapon xalqlari o‘rtasida savdo-sotiq, iqtisodiy, madaniy aloqalar bo‘lganligi ilmiy-tadqiqotlarda ham o‘z tasdiqini topib kelmoqda. O‘zbek-yapon arxeologik ekspeditsiya natijasiga ko‘ra O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan kushon podsholigining asosiy dinlardan bo‘lgan buddizm o‘rta osiyo xalqlari milliy qadryatlari va an‘analari bilan boyitilgan holda VI asr xitoy va korea orqali yaponiya orollarida tarqalgan. Yaponiyaning birinchi poytaxti Nara shahridagi horijiy ibodatxonasi xazinaxonasidan VIII asrda Samarqand va Toshkentda tayyorlangan osori-atiqalar, IX-X asrga oid ud musiqa cholg‘usi saqlanmoqda. Bunga o‘xshash misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Ushbu maqolamizda bugungi kunda O‘zbekiston va Yaponiya musiqa madaniyatida xalqaro hamkorlik “Sozanda va ustoz Ro‘zibi Xodjaeva faoliyati misolida” so‘z yuritmoqchimiz.*

### KALIT SO‘ZLAR

*O‘zbekiston yaponiya qarorlar ustoz Ruzibiy Xodjayeva kurs musiqa ta’lim dutor bastakorlar maqom madaniyat hamdostlik mehnat.*

### ANNOTATION

*Commonwealth relations between Uzbekistan and Japan date back to ancient times. The fact that there were trade, economic and cultural relations between the Uzbek and Japanese peoples through the Great Silk Road has been confirmed in scientific research. According to the results of the Uzbek-Japanese archaeological expedition, Buddhism, which was one of the main religions of the Kushon kingdom existing in the territory of Uzbekistan, was enriched with the national values and traditions of the peoples of Central Asia and spread to the islands of Japan through China and Korea in the 6th century. The treasury of the foreign temple in Nara, the*

*first capital of Japan, preserves relics made in Samarkand and Tashkent in the 8th century, and oud musical instruments from the 9th-10th centuries. We can give many similar examples. In this article, we want to talk about the international cooperation in the musical culture of Uzbekistan and Japan “in the case of the performer and teacher Rozibi Khodjaeva”.*

### **KEYWORDS**

*Uzbek Japanese resolutions teacher Ruzibiy Khodjayeva course music education dutor composers status culture also work as associate professorio*

### **АННОТАЦИЯ**

*Содружественные отношения между Узбекистаном и Японией восходят к глубокой древности. Факт существования торгово-экономических и культурных связей между узбекским и японским народами через Великий шелковый путь подтвержден научными исследованиями. По результатам узбекско-японской археологической экспедиции буддизм, являющийся одной из основных религий Кушанского царства, существовавшего на территории Узбекистана, обогатился национальными ценностями и традициями народов Средней Азии и распространился на островах Японии через Китай и Корею в 6 в. Сокровищница иностранного храма в Наре, первой столице Японии, хранит реликвии, изготовленные в Самарканде и Ташкенте в VIII веке, в том числе музыкальные инструменты уд IX-X веков. Мы можем привести много подобных примеров. В данной статье мы хотим рассказать о международном сотрудничестве в области музыкальной культуры Узбекистана и Японии «на примере деятельности исполнителя и педагога Розибии Ходжаевой».*

### **КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

*Узбекистан Япония решения мастер Рузибия Ходжаева курс музыкальное образование dutor композиторы статус культура тоже дружба трудю*

Yaponiya (yaponcha 日本 Nippon, Nihon) - Sharqiy Osiyoda Tinch okeanidagi orollarda joylashgan davlat. Yaponiya hududida 6,8 mingga yaqin orol bo‘lib, shimoli-sharqdan janubi-g‘arbga qariyb 9.13 ming km<sup>2</sup>ga cho‘zilgan. Yaponiyaning eng yirik 4 ta orollari: Hokkaydo, Xonsyu, Sikoku va Kyusy. Yaponiyaning tabiiy boyliklari deyarli juda kam davlatning atrofini Tinch okean moddasi yetarlicha hisoblanadi. Shimolidan Oxota dengizi, sharq va janubi-sharqdan Tinch okean, g‘arbdan Yapon va Sharqiy Xitoy dengizlari bilan o‘ralgan. Maydon 377,8 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 126 mln. kishi (2021). Po‘ytaxti – Tokio shahri. Yaponiya ma’muriy jihatdan 47 prefekturaga bo‘linadi.

Yurtimiz 1991-yil 31-avgust kuni mustaqillikka erishgach ko‘pgina xorijiy davlatlar bilan ishtimoiy, siyosiy va diplomatik munosabatlarni o‘rnatdi. Jumladan 1992-yilda Yaponiya Toshkentdagi elchixonasi, 1996-yilda esa O‘zbekiston respublikasining elchixonasi Yaponiyaning Tokio shahrida o‘z faoliyatini boshladi.

Ikki mamlakat o'rtasida teng huqiqiy aloqalar o'rnatildi. O'tgan o'ttiz bir yil davomida ko'plab rasmiy hujjatlar imzolandi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov ilk bor 1994-yilda tashrif buyirdi va bundan ko'zlangan asosiy maqsad ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish edi. Prezident ikkinchi marotaba 2002-yil 28-31-mayda qilgan tashrifi esa muhim rol o'ynadi. Tashrif chog'ida o'n to'rtta hujjat imzolandi. Bular qatoriga O'zbekiston bilan Yaponiya do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'grisida deklaratsiya, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistondagi iqtisodiy islohatlarga ko'maklashish haqida qo'shma bayonot va boshqa hujjatlar kiradi.

Ikki mamlakat o'rtasida madaniy aloqalar ham keng rivojlanib kelmoqda. Xususan, Toshkentdagi Milliy nafis san'at va musiqa universiteti bilan hamkorlikda Toshkentda xalqaro madaniyat karvon saroyining ishga tushirilishi, jahon tinchlik qo'ng'irog'ining barpo etilishi Yaponiyadagi bir qancha ijtimoiy tashkilotlar ko'magida Osaka "FUKUSHIMA" MAIBASHI shaharlarida doimiy faoliyat olib boruvchi O'zbekiston madaniyat uylarining ochilishi bunga yorqin misol.<sup>1</sup> Bundan tashqari Yaponiya va O'zbekistonda ko'plab ko'rgazma, taqdimot, kino festivallar, milliy musiqa va raqs guruhlarining konsertlari, shuningdek 1996-yildan buyon O'zbekistonda Yaponiya kunlari muntazam o'tkazilib kelinmoqda.

Yurtimizdagi O'zbekiston va Yaponiya markazida dutor kursi ochilgan bo'lib, bundan asosiy ko'zlangan maqsad milliy qadryatlarimiz va milliy merosimiz bo'lgan musiqa san'atimizni jahon sahnalariga olib chiqish va uni qardosh xalqlarimizga ham aslini saqlab qolgan holda o'rgatishdir. Ushbu kurs 2005-yil dastlab sinov tariqasida ochilgan bo'lib, o'z faoliyatini uch oy davomida yuritadi. Qisqa muddat ichida ansambl ishtirokchilari yaxshi natijaga erishib, bahorgi tadbirlardan biriga o'z chiqishini namoyon qiladi. Bu tadbirda markaz rahbari ham ishtirok etib, qatnashchilarning ijrolariga yuksak baho beradi va endi dutor kursi bizda doimiy ravishda davom etadi deb aytadi. Ansambl rahbari Ro'zibi Xodjievaga kutilmagan bu taklifdan quvanadi va keyingi faoliyatlarida kursni yanada yuksak darajaga ko'tarish kerak deb o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Dutor kursida asosan kollej, litsey va universitetlarda ishlash uchun kelgan volontyorlar, Sharqshunoslik universitetida o'zbek tilini o'rganish uchun Yaponiyadan bir yilga kelgan talabalar, shuningdek yurtimizning turli muassasalaridan, oliy talim muassasalarida tahsil olayotgan o'zbek talabalaridir

Qariyb yigirma yildan beri o'z faoliyatini yuritib kelayotgan ushbu ansambl juda ko'p natijalarga erishib kelmoqda. Yurtimizning ommaviy bayramlari va

<sup>1</sup> "Fukushima Station (Osaka) - Wikipedia" [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Fukushima\\_Station\\_\(Osaka\)](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Fukushima_Station_(Osaka))

teatrlashtirilgan tomoshalaridagi bayramlarda o'zlarining chiqishlarini namoyish etib kelmoqda. Radio va televediniye orqali ham ko'p intervyular berib o'z muxlislariga ham ega bo'lishgan. Eng ahamiyatli jihati shundaki 2020-yili pandimiyya vaqtida ustoz televediniye orqali Yapon shogirdlari bilan onlayn dutor darsini o'tib, uyda zerikib qolgan bolajonlarga dutor sir-sinoatlaridan tahsil bergan.

Shuningdek o'tgan yili O'zbekiston va Yapon diplomatik aloqalarining tuzilganligiga o'ttiz yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda ham o'z chiroyli ijrolari bilan tadbir mehmonlarini ko'nglini xushnud etgan edilar. Yana bir quvonarli jihati shundaki Yaponiyada O'zbekiston madaniyat kunlarida yurtdoshlarimiz qo'lida dutor, boshida do'ppi, egnilarida esa atlas va adraslarda kutib olinganliklari nafaqat jonkuyar ustozni balki, har bir yurtdoshimizni ko'ksida fahr tuy'usini uyg'otadi.

Ansambl repertuariga nazar soladigan bo'lsak unda xalq kuylaridan "Norim-Norim", "Dilxiroj", "Tanavor", "Lazgi", "Qo'shtor" va boshqalar. Shuningdek kompozitor va bastakor ijodlaridan "Favvora", "Dilnoz", "Rohat", "Qoshchinor", "Ko'ngil guldastasi" va boshqalar o'rin egallagan bo'lsa maqom asarlaridan ham na'munalar ijro etganlar. Ulardan "Soqi nomaiy – Savti kalon", "Qashqarcha", "Dugoh Xusayni", "Segoh" va boshqa asarlardir.

Ustoz o'quvchilarga ma'lum bir asarni o'rgatish jarayonida avvalo, o'sha asarning yaratilish tarixini so'zlab beradilar. Keyin esa maskur asarni taniqli dutor ijrochiligi maktabi vakillarining ijrolarini amalyotda ko'rsatib beradilar. O'quvchiga esa qaysi uslubda ijro etishlikni xohlasa o'sha uslubda o'rgatadilar. Ustozning bu tarzda dars o'tishlari fikrimizcha, uni mustaqil fikrlashga shuningdek ma'qul ijro yo'lini tanlash imkoniyatini beradi.

Ustoz R. Xodjayeva yapon millatiga mansub shogirdlari bilan asar o'rganish jarayonida qiyinchilik tug'ilmasligini ta'kidlaydilar. Garchi ular boshqa soha vakillari bo'lsalarda, ularning yutuqlari nota yozuvini yaxshi bilishliklaridadir. Yaponiya ta'limi tizimiga ko'ra, musiqa darslari ikkinchi darajali fan sifatida emas, balki birinchi darajali fan sifatida qaraladi va ularda musiqa darslari boshlang'ich sinflarda haftasiga ikki uch soat, yuqori sinflarda esa haftasiga ikki soat o'tiladi. O'qtuvchilar bu fanlarni o'quvchilar a'lo darajada o'zlashtirishlari uchun ota-onalarni yordamga chaqiradilar. Hattoki, oliy ta'limda o'qiyotgan boshlang'ich va maktabgacha ta'lim yo'nalishlarida musiqa fani o'tiladi. shu sabablar bo'lsa kerakki, ularga bizning milliy dutorimizni o'rganish qiyinchilik tug'dirmasa kerak. bundan tashqari ularning berilgan vazifani vaqtida bajarishlari tinimsiz mehnat qilishlari va o'z oldiga qo'ygan maqsadi sari intilishlari ustozni ham yanada izlanishga va yanada tinimsiz mehnat qilishga chorlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yurtimiz hozirgi kunda nafaqat Yaponiya balki ko‘pgina xorijiy mamlakatlardagi tashkilotlar bilan ta’lim tizimi bo‘yicha hamkorlik aloqalarini o‘natish borasida ko‘pgina ishlarni amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4119-sonli qarori asosida 2019-yil Xalqaro aloqalar bo‘limi tashkil etilgan. Shu kundan boshlab Janubiy Korea, Finlandiya, Angliya, AQSH, Polsha, Turkmanston va Fransiya kabi 20 tadan ortiq xorijiy davlatlarning elchixonalaridan hamkorlik qilish bo‘yicha takliflar olindi va 40 tadan ortiq rasmiy uchrashuvlar o‘tkazildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Lex.uz
2. Xodjayeva R. “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” (Dutor) Toshkent 2020
3. Мурадов М. К., Кадирова К. Использование национального музыкального наследия в формировании профессиональных навыков у будущих учителей музыки //Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. – 2016. – №. 2. – С. 44-45.